

KIRISH SO‘ZI

D.Sh. Xodjayeva

Qo‘qon davlat universiteti rektori

Assalomu-alaykum qadrli ustozlar va mehmonlar hamda konferentsiya qatnashchilari!

Barchangizni Qo‘qon davlat universitetida o‘tkazilayotgan “Qo‘qon asrlar silsilasida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyada ishtirok etayotganlarning bilan qutlayman. Ushbu nufuzli ilmiy anjumanni aynan shu zaminda ya’ni, o‘zining uzoq yillik tarixi mobaynida dunyo tamadduni va turli xalqlar madaniyati chorrahasi bo‘lib kelgan Qo‘qondi-latif shahrida o‘tkazilishi ham alohida ma’no-mazmunga ega. Chunki, Qo‘qon shahri hamisha ilm-fan va madaniyat markazi, yaratuvchanlik g‘oyalari, amaliy yangiliklar yuzaga kelgan Farg‘ona vodiysining “madaniyat beshik”laridan biri bo‘lib kelgan.

Ma’lumki, bugungi kunda xalqaro maydonda mamlakatning eng ilg‘or davlatlar qatoridan o‘rin egallashi, ushbu jamiyatda ilm-fan rivojiga qaratilgan e’tibor bilan chambarchas bog‘liq. Ilm-fan taraqqiyotida esa fundamental izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi tadqiqotlar natijasida keng ko‘lamli bilimlar o‘zlashtiriladi, ilmiy kontseptsiyalar asoslari yuzaga keladi va innovatsion o‘zgarishlarning poydevori yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasida istiqbol yillarida barcha sohalar qatorida ilm-fanning rivojlanishiga ham katta e’tibor qaratilib, e’tirofga loyiq ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan islohatlar ta’lim va ilm-fanni yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada, ilm-fanni ishlab chiqarish bilan integratsiyasini kuchaytirish, global davr talablariga mos raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, bunda ilg‘or xorij tajribalari va yutuqlardan keng foydalanish, muammolar yechimi uchun yangi innovatsion g‘oyalarni ilgari surish va iqtidorli talaba-yoshlarni ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish, xalqaro ilmiy va ta’lim muassasalari bilan samarali aloqalarini yuksaltirish ustivor vazifalar etib belgilangan.

Bugungi xalqaro konferentsiyaning maqsadi – Qo‘qon shahrining Markaziy Osiyo tarixi, jumladan, o‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rmini ilmiy jihatdan chuqur tahlil etish, shuningdek Qo‘qon shahri tarixi bilan bog‘liq manbalar va davr tarixshunosligi bilan bog‘liq masalalarni izchil yoritib berish hamda vatanimiz tarix sahifalarida Qo‘qon shahrining – madaniyat va ma’rifat o‘chog‘i sifatidagi ahamiyati, qolaversa, Qo‘qon shahrining buguni va istiqboli bilan bog‘liq ilmiy va nazariy qarashlarni o‘rganishga qaratilgan yangi tadqiqotlar natijalarini chuqur muhokama qilish, ularni mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi orasida keng targ‘ib qilish, masalalarini o‘rganish yuzasidan qo‘lga kiritilgan so‘nggi yangiliklardan ta’limda samarali foydalanish va shu asnoda Qo‘qon shahri tarixining hozircha o‘rganilmagan

jihatlarini tadqiq etish borasidagi ilmiy izlanishlarga yangidan turtki berishdan iboratdir.

Konferentsiya ishtirokchilari geografiyasining kengligi Qo‘qon shahri tarixi nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro ilmiy tadqiqotlarning ham muhim obyektlaridan biri ekanligini anglatadi. Jumladan, anjuman ishida Turkiya, Ukraina, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi ilmiy xodimlari, oliy ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, magistrantlar va iqtidorli talaba-yoshlar ishtirok etmoqda. Ular tomonidan Qo‘qon shahri tarixini zamonaviy yondashuvlar asosida o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar taqdim etilgan.

O‘ylaymanki, konferentsiyada muhokama qilinadigan ilmiy masalalar Qo‘qon tarixi, xususan, Markaziy Osiyo hamda vatanimiz tarixini yanada teranroq o‘rganilishiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi. Konferentsiya ishini samarali o‘tishiga tilakdoshman va anjuman mehmonlarini yana bir bor qadimiy va navqiron shahrimizga xush kelibsizlar deyishga ijozat bergaysizlar.